

## Suv – hayot manbai

Tabiatda yaratilgan barcha ne'matlar juda mukammaldir. Ayniqsa suv! Biz kundalik hayotimizda erkin, muammosiz ishlatalayotgan bu ne'mat - ajoyib bir mo'jiza desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu ne'matdan har sohada tejamlı foydalanish, isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik har birimizning asosiy vazifamizdir. Bugun institutimizning "Irrigatsiya va melioratsiya" kafedrasи dotsenti Mamataliev Adham Boymirzaevich 3 bosqich talabalariga "Sug'orish tarmoqlarining hisobiy suv sarflari. Sug'orish tarmoqlarida suv isrofgarchiligi va unga qarshi kurash" mavzusida Ochiq ma'ruza o'qidi. Ma'ruzada O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi bosh mutaxassisи Farxod Qo'ziev, Gidrologiya va gidrogeologiya kafedra mudiri Dilshod Nazaraliev, Irrigatsiya va melioratsiya kafedrasи professor-o'qituvchilari hamda institut O'quv-uslubiy boshqarmasi hodimlari ishtirok etishdi. Ma'ruzani boshida o'qituvchi talabalarga: sug'orish tarmoqlaridagi suv sarflarining turlari haqida tushunchalar berish bilan boshladi. Har bir reja bo'yicha bosqichma-bosqich ma'lumotlar berib o'tdi. Ma'ruzada talabalar va ma'ruzachi o'zaro fikr-almashinib, savol-javob tarzida, qiziqarli hamda faollikda o'tkazildi. O'qituvchi talabalarga "Suv isrofgarchiligiga qarshi qo'llaniladigan tadbirlarning samaradorligi" jadvalini o'rganib, anglab kelishlari vazifa qilib berildi.

